

HUDUDLARDA SUVDAN SAMARALI FOYDALANISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Normurodov Jamshid Baxshibek o`g`li

Buxoro Davlat Universiteti iqtisodiyot kafedrasini o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19851130>

Annotatsiya. Dunyoda chuchuk suv resurslarining tanqisligi muammosi XXI asrning dastlabki yillaridan boshlab jiddiylashib bormoqda. Yer yuzida qariyb 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekayotganligi BMTning hujjatlarida qayd etilgan.

Kalit so`zlar: relyefi, erozion aholi, kambag`allik, bandlik, pandemiya, tadbirkorlik, kam ta`minlangan, aholi ulushi, xarajat.

Suv resurslari insoniyat hayoti, iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikning asosiy manbasi bo`lib, uning yetarli va sifatli mavjudligi hududlar barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lgan omillardan biri hisoblanadi. “XXI asrda global iqlim o`zgarishi, dunyo aholisining tezkor o`sishi, sanoat va qishloq xo`jaligining kengayishi suv resurslariga bo`lgan talabni keskin oshirdi. Shu bilan birga, suv resurslarining tabiiy taqsimoti mintaqalar bo`yicha notekis bo`lib, ayrim hududlarda suv tanqisligi dolzarb muammo sifatida namoyon bo`lmoqda”¹.

Shu sababli, hududlarda suvdan samarali foydalanish nafaqat texnologik, balki institutsional, iqtisodiy va huquqiy yondashuvlar orqali hal qilinadigan kompleks vazifa hisoblanadi. Institutsional asoslar deganda suv aktivlarni boshqarish, taqsimlash va undan samarali foydalanishni tartibga soluvchi davlat, mahalliy hokimiyat, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati va boshqa manfaatdor subyektlarning faoliyat tizimi tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, institutsional mexanizmlar hududiy suv boshqaruvining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Hududlarda suvdan samarali foydalanishning institutsional mexanizmlari bir tomondan davlat siyosati va normativ-huquqiy bazaga, boshqa tomondan mahalliy boshqaruv tizimi, suv xo`jaligi organlari va fuqarolar ishtirokiga bog`liq hisoblanadi. Shu bilan birga, global tajriba shuni ko`rsatmoqdaki, institutsional tashkilotlar samaradorligi hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda suv resurslarini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan kuchayadi. Masalan, dunyodagi suv muammosi keng bo`lgan davlatlar Ispaniya, Isroil, Avstraliya va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida hududiy suv boshqaruvi tizimlari samaradorlikni oshirish maqsadida innovatsion yondashuvlar va iqtisodiy mexanizmlardan keng foydalanishmoqda.

Bugun dunyoda ekologik vaziyat murakkab. Tabiiy ofatlar va qurg`oqchilik ko`payib bormoqda. Bu agrar sohada ham ilmiy, ham huquqiy islohotlarni talab qilmoqda. O`zbekistonda ham aholi soni o`sayapti. Iqtisodiyot tarmoqlari kengaymoqda. Suvga talab yildan-yilga ortib boryapti. Mana shunday vaziyatda ikkita juda muhim zarurat vujudga keldi. Birinchisi, suvdan foydalanishdagi yangi tartiblarni joriy qilish. Ikkinchisi, suvni tejash.

O`zbekiston Respublikasining Suv kodeksi aynan mana shu zaruratdan kelib chiqib tayyorlandi. Mazkur kodeks “Suv va suvdan foydalanish to`g`risida”gi Qonun, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 8 ta farmoni va 14 ta qarori hamda Hukumatning 26 ta qarorlaridagi normalarni birlashtirdi. Natijada tizimlashgan yaxlit kodeks yaratildi.

¹ М.И.Львович Вода и жизнь. - М., «Мысль», 1986. - 237 с.

Shuningdek, sohaning o'ziga xosligi va murakkabligidan kelib chiqib, kodeksning to'g'ridan to'g'ri ishlashini ta'minlashda har bir normani to'g'ri talqin etish maqsadida 34 ta asosiy tushunchalar orqali hujjatda qo'llanilgan har bir atamaga alohida ta'rif berib o'tilgani ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchilar uchun qulayliklar yaratadi.

Qayd etish o'rinliki, bugungi kunda mamlakatda qiymati 6,4 trln. so'mlik 463 ta suv xo'jaligi obyekti xususiy sektor boshqaruviga berilgan va ushbu loyihalar doirasida 110 mlrd. so'm investitsiya mablag'lari kiritilib, 90 ga yaqin nasos agregati yangilangan. Bu boradagi ishlar davom ettirilib, umumiy loyiha qiymati 10 trln. so'mlik yana 500 ta suv xo'jaligi obyektlari xususiy sektor boshqaruviga berilishi bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda².

Shulardan kelib chiqib, Kodeksda suv xo'jaligida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy qilish shartlari ko'rsatib o'tildi. Suv xo'jaligi obyektlarini xususiy sektorga o'tkazish mexanizmining huquqiy asosi baholanib, unga asosan tadbirkorlar o'ziga tegishli hududlarda barcha suv obyektlarini mustaqil boshqaradi va suv obyektlarini modernizatsiya qilish orqali suv sarfini iqtisod qilish choralarini ko'rishiga turtki beradi.

Bundan tashqari, ekstremal suv tanqisligi va qurg'oqchilik tushunchalari hamda sug'orish suvini iste'molchilar orasida taqsimlashning yangi mexanizmlari belgilandi. Endilikda suv hajmi 50 foizdan kam bo'lganda suvdan foydalanish bo'yicha yangi ustuvorliklar joriy qilinadi va har bir suv manbai kesimida suv olish limitlari hamda har bir iste'molchi kesimida suv olish kvotalari belgilanadi. Bunda, iste'molchi o'ziga ajratilgan kvotadan tejab qolingan suvni boshqa iste'molchiga shartnoma asosida berishi yoki sotishi mumkin bo'ladi. Bu esa barcha suv iste'molchilarining suvga teng huquqini ta'minlab, suvdan samarali foydalanishga undaydi.

Mazkur ustuvor yo'nalishlardan ko'rish mumkinki, bunda, birinchi navbatda, insonning ichimlik suvga bo'lgan hayotiy ehtiyojlari hamda ekotizimni saqlash uchun kafolatli suv ajratilishi ko'zda tutilgan. Bu esa mamlakatimizdagi "inson qadri" tamoyillariga hamohangdir.

Hujjat bilan suv boshqaruvini takomillashtirish yo'nalishida ham bir qator muhim normalar belgilandi. Xususan, endi suv resurslarini boshqarishda shaffoflikni ta'minlash va manfaatdor taraflar vakillarini jalb etgan holda tegishli qarorlar qabul qilish maqsadida respublika va havzalar, zarur hollarda esa hududlar darajasida kollegial-maslahat organi shaklidagi suv kengashlari tashkil etiladi.

Respublika kengashi tarkibiga suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli vazirliklar va idoralarning rahbarlari kiradi. Shu bilan birga, Respublika suv kengashining tarkibiga nodavlat tashkilotlar vakillari, ayrim ekspertlar va olimlar ham kiritilishi mumkin. Kengash idoralararo darajada iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan barqaror ta'minlashga doir masalalarni tezkor hal qiladi.

Kodeksda suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonolari va sohil bo'yi mintaqalari, ichimlik va xo'jalik-maishiy suv ta'minoti inshootlarining sanitariya muhofazasi zonolari alohida jadval ko'rinishida berildi. Bu suv xo'jaligi vakillarining ham suv va suv obyektlaridan foydalanuvchilarning hujjat bilan ishlashda normalarni to'g'ri talqin etilishiga xizmat qiladi.

Kodeksda suv yetkazib berish xizmatlari va boshqa suv xo'jaligi xizmatlari uchun to'lovlarning bazaviy stavkalari suv tejashni rag'batlantirish va tariflarni yetkazib berilgan suv hajmlariga bog'lash, gidrografik zonadagi suvlilik darajasi, turli hududlardagi suvdan

² Mo'minova E.A. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2023, 1 (161). - Б. 16-2

foydalanuvchilar uchun suv yetkazib berish xarajatlaridagi tafovutlar va bitta hudud doirasidagi suvdan foydalanuvchilar uchun tariflarni tenglashtirish, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olingan holda tasdiqlanishi ko‘rsatib o‘tildi. Bu esa mamlakatda suvdan foydalanishda ijtimoiy adolatni ta‘minlab, yetkazib berilgan suv uchun hisob yuritilishi va suvni iqtisod qilganlar rag‘batlantirilishining huquqiy kafolatidir.

Normativ-huquqiy va siyosiy mexanizmlar yo‘nalishi suv aktivlarni boshqarish va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi qonunlar, me‘yoriy hujjatlar, xalqaro va milliy standartlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, davlat siyosati ekologik xavfsizlik, suv resurslarini muvofiqlashtirish va hududiy boshqaruvning samaradorligini ta‘minlashi lozim. Bunga misol qilib Yevropa Ittifoqining “Suv ramka direktivasi”ni aytish mumkin. Ushbu hujjat orqali bugungi kunda Yevropa mamlakatlarida hududiy suv boshqaruvining barqarorligini ta‘minlashda muhim institutsional hujjat sifatida boshqaruvda qo‘llanilib kelinmoqda.

Hududiy boshqaruv va muvofiqlashtirish tizimi suvdan foydalanishning qishloq xo‘jaligi, sanoat va uy-joy sektorlarini birlashtiruvchi tizimli boshqaruv mexanizmi. Bu tizim hududiy xususiyatlarni hisobga olib, suv resurslarini samarali boshqarish imkonini yaratadi. **Jamoatchilik ishtiroki** mahalliy jamoalarning, korxonalarining, davlat va nodavlat tashkilotlarning suv resurslarini boshqarish jarayoniga jalb qilinishi shaffoflikni oshiradi va suvdan foydalanishda samaradorlikni kuchaytiradi

Barqaror rivojlanish tamoyili suv resurslarini ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni integratsiyalashgan holda boshqarish, kelajak avlodlar manfaatini hisobga olishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, institutsional tizim barqaror rivojlanishning ajralmas qismi sifatida qaraladi. “Markaziy Osiyo davlatlarida so‘nggi o‘n besh yil ichida “suv muammosi” davlatlararo munosabatlar va mintaqaviy xavfsizlikning asosiy omiliga aylangan. Aholining yuqori o‘shish sur‘atlari va iqtisodiy rivojlanishning past darajasi mehnat bozorida kuchli demografik bosimni yuzaga keltirmoqda va kelajakda bu tendensiya davom etishi kutilmoqda”³. Mehnat migratsiyasi va milliy mehnat bozorlarining rivojlanishi borasidagi demografik omilning roli yanada oshib bormoqda. Mintaqadagi iqtisodiyoti rivojlanmagan hududlarda demografik salohiyatning ortishi bandlik va ijtimoiy keskinlik muammolarini kuchaytirishi mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. J.B.Normurodov Innovatsion marketing faoliyatini takomillashtirish YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI // Ilmiy amaliy jurnali ISBN 978-9943-5256-3-4 №3 (5) 2024 93-98-betlar// https://journal.buxdu.uz/indix.php/journals_buxdu/article/view/11153
2. J.B.Normurodov QISHLOQ XO‘JALIGIDA MARKETING TADQIQOTLARINI RIVOJLANTIRISH// «GLOBALLASHUV VA IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR» RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 2024 YIL 15 – MAY <https://doi.org/10.5281/zenodo.11422335> 302-307-betlar
3. J.B.Normurodov INNOVATION MARKETING DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH// Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19th March, 2024 ISSN: 2835-3730 Website: econferenceseries.com 111-116- Page

³ Захидов А З . Водохозяйственные системы Средней Азии. - Т. , «Фан»,

4. J.B.Normurodov QISHLOQ XO'JALIGIDA MARKETING TADQIQOTLARINI RIVOJLANTIRISH// "Globallashuv va iqlim o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash: muammo vayechimlar" mavzusida Respublika ilmiy amaliy anjumani <https://doi.org/10.5281/zenodo.11422335>
5. J.B.Normurodov JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A"ZO BO"LIHNING O"ZIGA XOS JIHATLARI//INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS International scientific-online conference Part 27 MAY 3rd COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS AMSTERDAM 2024 <https://interonconf.org> 108-114 – betlar
6. J.B.Normurodov So`ngi yillarda avtomobilsozlik sohasi rivojlanishi uchun amalga oshirilgan ishlar// For participation in the scinentific online confirense "Current approaches and new research in modern sciences" with an article entitled <https://inovatus.es/index.php/ejbsos/articli/view/2150/2090>
7. J.B.Normurodov THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION AND PROMISING OPPORTUNITIES TO INCREASE IT IN UZBEKISTAN//O'ZBEKISTONDA FANALARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI ISSN: 2181-3302 SJIF:5,963 23-SON 20.10.2023 https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11153 370-374-BETLAR
8. Aholi turmush darajasini oshirish va aholini ish bilan bandligini ta'minlash// YANGI O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA XORIY TAJRIBASI MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TDIU 2023-yil 703-706-betlar <https://intironconf/index.php.org>
9. J.B.Normurodov THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION AND PROMISING OPPORTUNITIES TO INCREASE IT IN UZBEKISTAN//European Journal of Business Startups and Open Society| ISSN: 2795-9228 Vol. 3 No. 12 (Dec - 2023): <https://inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/2150/2090> 58-61-BETLAR
10. Явмутов Д.Ш. "ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ ҚЎЛЛАШДА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЖОРИЙ ҚИЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИ" "ИQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №2(10) 2023(92bet)
11. Явмутов Д.Ш. Natural Geographical Description, Land and Water Fund of Bukhara Region, its Usage Problems International Journal of Advanced Science and Technology. Vol. 29, No. 9s, (2020), pp. 5724-5735
12. Явмутов Д.Ш. Замонавий география фанининг забардаст устуни Эл ардоғидаги олим. География фанлари номзоди, профессор И.Қ.Назаров 80 ёшда. Республика илмий-амалий конференциясию Бухоро 30 апрель, 2021 йил. – Б. 47-49.
13. Явмутов Д.Ш. Improvement of the activities of small businesses on the basis of innovative marketing technologies International Journal of Development and Public Policy. www.openaccessjournals.eu Volume: 1 Issue: 1, pp. 48-53.
14. Явмутов Д.Ш. Risks in the Progress of digitalization of Business Activities. Analytical journal of education and development. Volume: 01, Issue: 02, 2021. pp. 19-22.
15. Явмутов Д.Ш. Современные проблемы орошаемого земледелия в Узбекистане и пути повышения эффективности в отрасли. Қишлоқ хўжалигида ихтисослашган кластерларни шакллантириш: тажрибалар, натижалар ва инновацион ёндошувлар. Республика илмий амалий анжумани материаллари тўплами. Бухоро, 2021 йил 30 ноябр. Бухоро. – Б. 8-10.

16. Явмутов Д.Ш. Бошқарув механизмларини такомиллаштириш – қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариши самарадорлигининг муҳим омили. Қишлоқ хўжалигида ихтисослашган кластерларни шакллантириш: тажрибалар, натижалар ва инновацион ёндошувлар. Республика илмий амалий анжумани материаллари тўплами. Бухоро, 2021 йил 30 ноябр. Бухоро. – Б. 17-19.
17. Явмутов Д.Ш. Яшил иқтисодиётни қўллашда хорижий давлатлар тажрибаси ва уни Ўзбекистонда жорий қилиш имкониятлари Иқтисодиёт ва туризм. Халқаро илмий ва инновацион журнал. №2 (10) 2023. – Б. 89-97.
18. Явмутов Д.Ш. Yashil iqtisodiyotga o'tishda xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ijtimoiy, iqtodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal. 2023 yil, №11-12. – В. 41-47. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
19. Явмутов Д.Ш. Sanoatni yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlantirish yo'llari "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. №1(15) 2024. – В. 21-28.